

AVTOMOBIL YO'LLARIDA ATROF-MUHITNI TARTIBGA SOLISH VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Qulmamatov Ramazon Juma o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi.

ramazonqulmamatov@gmail.com

Abdurasulov Samar Sanjar o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14911171>

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda avtomobil transporti inson hayoti uchun katta qulaylik yaratish bilan birga, atrof-muhitga ham sezilarli darajada zarar yetkazmoqda. Avtomobillarning ko'payishi, yo'llarning kengayishi va transport harakatining ortishi ekologik muammolarning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada avtomobil yo'llari bilan bog'liq asosiy ekologik muammolar va ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekologik muammolar, havoning ifloslanishi, transport oqimini boshqarish.

ENVIRONMENTAL REGULATION AND ECOLOGICAL PROBLEMS ON MOTOR ROADS

Abstract. Currently, motor transport, while creating great convenience for human life, also causes significant damage to the environment. The increase in the number of cars, the expansion of roads and the increase in traffic are causing an aggravation of environmental problems. This article analyzes the main environmental problems associated with motor roads and measures to solve them.

Keywords: environmental problems, air pollution, traffic flow management.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ НА ДОРОГАХ

Аннотация. В настоящее время автомобильный транспорт, обеспечивая большие удобства для жизни человека, также наносит значительный вред окружающей среде. Рост числа автомобилей, расширение дорог и увеличение интенсивности движения приводят к обострению экологических проблем. В статье анализируются основные экологические проблемы, связанные с автомобильными дорогами, и меры по их решению.

Ключевые слова: экологические проблемы, загрязнение воздуха, управление транспортными потоками.

Hozirgi vaqtda avtomobil transporti inson hayoti uchun katta qulaylik yaratish bilan birga, atrof-muhitga ham sezilarli darajada zarar yetkazmoqda. Avtomobillarning ko'payishi, yo'llarning kengayishi va transport harakatining ortishi ekologik muammolarning keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Avtomobil yo'llari bilan bog'liq ekologik muammolarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:


Havo ifloslanishi avtomobillardan chiqadigan gazlar tarkibida uglerod oksidlari (CO, CO₂), azot oksidlari (NO_x), oltingugurt oksidlari (SO_x) va zararli organik birikmalar mavjud.

Ushbu moddalar havoni ifloslantirib, nafaqat inson salomatligiga, balki butun ekologik tizimga zarar yetkazadi. Ko'p hollarda transport vositalarining nosozligi va eski dvigatellar atrof-muhitga chiqindi gazlarining ortiqcha chiqishiga sabab bo'ladi.

Tuproq va suvning ifloslanishi avtomobillardan to'kilgan yoqilg'i, moy va boshqa kimyoviy moddalar yomg'ir yoki qor suvlari orqali yer osti suvlari va tuproq tarkibiga singib ketadi. Bu esa yer unumdorligini pasaytirib, ekotizim muvozanatini buzadi. Ayniqsa, qish mavsumida yo'llarni muzdan tozalash uchun ishlatiladigan kimyoviy reagentlar ham yer va suvni ifloslantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shovqin va tebranish ifloslanishi transport vositalari harakati natijasida yuzaga keladigan shovqin insonlarning psixologik va jismoniy sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Doimiy shovqin stress, uyqusizlik, diqqatni jamlay olmaslik va hatto yurak-qon tomir kasalliklariga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, avtomobillarning harakatidan kelib chiqadigan tebranishlar tuproq eroziyasiga sabab bo'lib, binolar va inshootlarning mustahkamligiga ham salbiy ta'sir qiladi. Yovvoyi hayvonlar uchun xavf yo'llarning kengayishi va yangi trassalarning qurilishi hayvonlarning tabiiy yashash muhitini qisqartiradi. Natijada hayvonlar oziq-ovqat izlab yo'llarni kesib o'tishga majbur bo'lib, avtohalokatlar sonining ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa nafaqat hayvonlarning kamayishiga, balki haydovchilar va yo'lovchilarning xavfsizligiga ham tahdid soladi. Issiqxona effekti va iqlim o'zgarishida ham avtomobil transporti atmosferaga chiqariladigan issiqxona gazlarining muhim qismini tashkil etadi. Ayniqsa, uglerod oksidi (CO₂) miqdorining ortishi global isish jarayonini tezlashtirib, iqlim o'zgarishlariga sabab bo'ladi.

Natijada tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, suv tanqisligi va boshqa ekologik muammolar yuzaga keladi.



Muammolarni hal qilish yo‘llari to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak transport vositalarini ekologik me‘yorlarga moslashtirish, elektromobillar va gibrid avtomobillarni keng joriy etish. Yoqilg‘i sifatini yaxshilash va zararli chiqindilarni kamaytiruvchi texnologiyalarni rivojlantirish. Eski va ekologik talabga javob bermaydigan avtomobillarning harakatlanishini cheklash kabilar samarali yordam beradi.

Ekologik toza yo‘l infratuzilmasini yaratish yo‘llar bo‘ylab daraxt ekish va yashil hududlarni ko‘paytirish orqali havoni tozalash. Shovqinni kamaytirish uchun maxsus ovoz yutuvchi devorlar o‘rnatish. Suv oqimlarini himoya qilish uchun drenaj tizimlarini takomillashtirish.

Alternativ transport vositalaridan foydalanish jamoat transporti tizimini rivojlantirish va avtobuslar, tramvaylar hamda metro xizmatlarini takomillashtirish. Shaxsiy avtomobillardan foydalanish o‘rniga velosiped yo‘laklarini barpo etish va ekologik transportni rag‘batlantirish.

Piyodalar uchun qulay infratuzilma yaratish orqali avtomobil transportiga qaramlikni kamaytirish.

Yo‘llarni ekologik jihatdan to‘g‘ri loyihalash Yovvoyi hayvonlar uchun maxsus o‘tish joylari va tunnel yo‘laklari qurish. Qurilish materiallaridan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash. Yo‘l qoplamalarini zamonaviy, ekologik toza materiallardan tayyorlash.

Transport oqimini boshqarish va ekologik nazoratni kuchaytirish orqali tirbandliklarni kamaytirish orqali zararli chiqindilar miqdorini pasaytirish.

Transport vositalari uchun ekologik nazorat tizimini joriy etish va ekologik standartlarga javob bermaydigan avtomobillarning harakatlanishini cheklash. Yo‘l harakati qoidalariga ekologik tamoyillarni kiritish.



Xulosa qilib shuni aytish kerakki avtomobil yo‘llari va transport tizimi inson hayotining ajralmas qismi bo‘lsa-da, ularning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Havo, suv va tuproqning ifloslanishi, shovqin ifloslanishi, yovvoyi tabiatning zarar ko‘rishi hamda iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolar nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham jiddiy xavf tug‘diradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi omillarga e‘tibor qaratish lozim:

- Ekologik toza transport turlaridan foydalanishni kengaytirish
- Yangi yo‘l qurilish loyihalarida ekologik tamoyillarni hisobga olish
- Yoqilg‘i samaradorligini oshirish va zararli gazlar chiqindisini kamaytirish
- Shaxsiy avtomobillardan foydalanish o‘rniga jamoat transportini rivojlantirish
- Ekologik nazorat va qonunchilikni kuchaytirish kabilar

Har bir inson avtomobil transportidan oqilona foydalanish orqali ekologik muhitni yaxshilashga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolar hamkorlikda harakat qilsa, avtomobil transportining atrof-muhitga ta‘siri kamaytirilib, ekologik barqarorlik ta‘minlanishi mumkin.

REFERENCES

1. Qulmamatov Romazon Juma o'g'li,/Bo'lajak muhandislarga ta'lim berishda ularni kasbiy sifatlarini oshirish metodikasi, //scientific approach to the modern education System, 2023/12/6, 108-111., //https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Lk_JGHAAAAAJ&citation_for_view=Lk_JGHAAAAAJ:qjMakFHDy7sC
2. Qulmamatov Ramazon Juma o'g'li,/Chet el avtomobil yo'llarini qurish usullarini tahlil qilish, Educational Research in Universal Sciences, 2023/12/22, 1049-1051., //https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Lk_JGHAAAAAJ&citation_for_view=Lk_JGHAAAAAJ:IjCSPb-OG4C
3. O'zbekiston Respublikasi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – 1992-yil 9-dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – 1996-yil 27-dekabr.
5. Rasulov T.A., Qosimov H. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – T.: O'zbekiston, 2019.
6. Xamidov R., Islomov A. Transport ekologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
7. Rahimov S. Tabiatdan foydalanish va ekologiya. – T.: Universitet, 2017.